Holbuki, O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuning 10-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining hududida tezkor-qidiruv faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy razvedkasining, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining organlari amalga oshirishi qayd etilgan [6, B. 3].

Zero, amaliyotdagi o'rghanish va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat xaridlari to'g'risidagi loyihalar va shartnomalarni tuzishda davlat buyurtmachisi, ya'ni xarid komissiyasi raisi yoki muayyan bir a'zosining aynan o'zi davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlarni sodir eta olmaydi.

Sababi, ushbu turdagи jinoyatlar odatda mansabdor shaxslar tomonidan oldindan jinoiy til biriktirilgan holda, jinoiy uyushma yoxud uyushgan guruhlarning birlashishi oqibatida sodir etiladi.

Davlat xaridlari sohasidagi shartnoma va hisob-fakturalarni rasmiylashtirishda jinoyatlar oldindan o'zaro til biriktirish orqali sodir etilganligini inobatga oladigan bo'lsak, amaliyotda jinoyat haqidagi ariza va xabarlar bilan murojaat qilish salmog'i sezilarli darajada kam kuzatiladi.

Shu sababli, tezkor-qidiruv faoliyati bilan shug'ullanuvchi organlar mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar yuzasidan tezkor ma'lumotlarni qo'lga kiritish va ushbu ma'lumotlarni kelgusida dalil sifatida foydalanilishini ta'minlash uchun samarali va asosli tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishlari zarurligiga ehtiyoj sezilmoqda.

Shu o'rinda, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu jinoyatlar odatda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

Tender jarayonlarida davlat xaridlari bo'yicha tanlov shartlari ma'lum bir ishtirokchi uchun "**moslashtirilgan**" bo'lishi yoki tanlov shartlari bajarilmaganiga qaramasdan, oldindan kelishilgan ishtirokchiga shartnoma berilishi, ya'ni **manipulyatsiya** — noqonuniy operatsiya, faol savdo fikrini uyg'otish yoki oldi-sotdida qimmatli qog'oz bahosini tushirish yoki oshirish uchun oldi-sotdi qilingan qimmatli qog'oz [7, B. 1] ko'rinishida ham sodir etilishi mumkin.

Misol uchun, Buxoro shahar tug'ruq kompleksi 19.05.2023 yilda davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portaliga ([etender.uz](http://etender.uz)) 261559-sonli lot orqali tibbiyot jihozlarini xarid qilish bo'yicha boshlang'ich qiymati 1 119 000 000 so'm etib e'longa bergen.

O'rganish natijalari bo'yicha 5 nafar ishtirokchi offerentlar tomonidan buyurtmachi tomonidan qo'yilgan talablarga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lishiga qaramasdan, xarid komissiyasi raisi va a'zolari tomonidan tanlov ishtirokchilari asossiz baholanganligi aniqlanib, xarid komissiyasi raisi va a'zolariga tegishli tartibda ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atilib, javobgarlik masalasi hal etilgan.

Bundan tashqari, davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar va tender ishtirokchilari o'rtasida qarindosh-urug'chilik, do'stlik yoki boshqa yaqin aloqalar mavjud bo'lishi, ya'ni **manfaatlar to'qnashuvi** — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qaramaqarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat [8, B. 1] ni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Yoki, bir shaxs yoki shaxslar guruhi bir nechta soxta kompaniyalarni tashkil etib, ular o'rtasida raqobat borligini namoyon qilganday ko'rsatib, aslida esa bu kompaniyalar bir shaxsga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Yoki bo'lmasa, davlat buyurtmachisi tomonidan xarid qilinayotgan mahsulot va xizmatlar narxining sun'iy ravishda oshirilishi, sifatsiz mahsulotlar yoki xizmatlar uchun asossiz ravishda yuqori narxlar belgilanishi holatlari kuzatiladi, bu esa talabgorlarning raqobatda ishtirok etish huquqlarini ochiqdan-ochiq cheklaydi.

Yoxud, davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlar da'vat buyurtmachisi tomonidan elektron davlat xaridlari platformasiga joylashtirilgan hujjatlar soxtalashtirilishi, jumladan, moliyaviy hisobotlar, texnik ko'rsatkichlar, sertifikatlar va litsenziyalar, tajriba va malaka to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa muhim hujjatlar qalbakilashtirish (soxtalashtirish) shaklida ham namoyon bo'ladi.

Misol uchun, tegishli davlat tashkilotlaridan elektron shaklda olish imkoniyati mavjud bo'lgan ma'lumotlar, xususan tanlov ishtirokchisining soliq qarzdorligi yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomaga, ishtirokchi tashkilotdagi ishchilar soni, ishtirokchi tashkilotdagi mashina mexanizmlar soni, korxona, muassasa va tashkilotlarning bankrotlik jarayonida emasligi, quruvchi (pudratchi) tashkilotlarning reyting ma'lumotlari Majburiy ijro byurosi, tijorat banklari, soliq organlari, moliya, statistika va sohaga taalluqli boshqa tashkilot va idolar bilan o'zaro integratsiya qilinmaganligi sababli, tanlov ishtirokchilari tomonidan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan soxta ma'lumotlar va yozuvlar hali-hanuzgacha kiritilib kelinayotganligi ma'lum. Bu esa o'z navbatida, davlat manfaatlariga jiddiy ziyon va zarar yetkazilishiga sabab bo'lmoqda.

Bu kabi korrupsiyon qonunbuzilishi holatlarini aniqlash va fosh etishda hamda ushbu turdagagi jinoyatlar kelgusida takroran sodir etilishining oldini olish maqsadida davlat buyurtmachisi tomonidan tanlov ishtirokchilarining soliq qarzi, ishchilar soni, mavjud mashina mexanizmlari, bankrotlik haqidagi ma'lumotnomalari hamda quruvchi tashkilotlarning reyting ko'rsatkichlari o'zaro integratsiya qilingan tashkilotlarga onlayn so'rov nomaya yuborish orqali olinsa, o'yaymizki ushbu turdagagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish yo'lida kutilgan natijalarga olib keladi.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining Maxsus qismida, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar asosan quyidagi moddalar bilan kvalifikatsiya qilinib kelinadi. Jumladan: 167-modda (O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish), 168-modda (Firibgarlik), 205-modda (Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish), 206-modda (Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish), 207-modda (Mansabga sovuqqonlik bilan qarash), 209-modda (Mansab soxtakorligi), 210-modda (Pora olish), 211-modda (Pora berish), 212-modda (Pora olish-berishda vositachilik qilish).

### **Davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bir qator o'ziga xos usullarni talab etadi.**

Xususan, davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va fosh etishning eng samarali usullaridan biri – bu tender hujjatlarini chuqur tahlil qilishdir. Bu jarayonda quyidagi nuqtalarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

**Birinchidan**, tender shartlarining ma'lum bir ishtirokchi uchun moslashtirilgan tarzda ishlab chiqilganligi, tender shartlarining asossiz o'zgartirilishi, tender ishtirokchilarining bir-biriga o'zaro bog'liqligi, ya'ni yuqorida keltirilganidek qarindosh-urug'chilik aloqalarining mavjudligi, narxlar bilan manipulyatsiya qilishdagi belgilari, xususan narxlarning sun'iy va asossiz ravishda oshirilishi, tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va noaniqliklar.

**Ikkinchidan**, davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etishda moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra, davlat buyurtmachilarini tomonidan muayyan ish va xizmat turlarini bajargan tanlov ishtirokchilariga berilgan to'lovlar bilan unga sarf qilingan xarajatlarning bir-biriga mos kelishini o'rganish, narxlarning bozor qiymatiga mos kelishini tekshirish, ishtirokchilar o'rtasidagi moliyaviy aloqalarni aniqlash, naqd pul oqimlarini tezkor-qidiruv tadbir turlari orqali aniqlash va bank hisob raqamlarini tekshirish.

**Uchinchidan**, tender ishtirokchilarining yuridik manzillari hamda joylashuvini tekshirish, ta'sischilar va rahbarlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish, affillanganlik darajasini aniqlash, ishtirokchilar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash, korxonaning asosiy vazifasi

va faoliyat turlarini tekshirish, soliq organlaridan soliq qarzdorligi mavjud yoki mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarni hamda bank, moliya, statistika va soliq hisobotlarini tahlil qilish.

**To'rtinchidan**, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarni aniqlashda so'rov, ma'lumotlar to'plash, qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig'ish, predmetlarni va hujjatlarni tekshirish, shaxsnинг aynanligini aniqlash, tezkor kuzatuv, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, tezkor eksperiment o'tkazish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida axborot olish, tezkor kiritish hamda tezkor-qidiruv faoliyatini amalgalashuvchi organlarga ko'maklashuvchi shaxslar muhim o'rinni tutadi [9, B. 5].

Bugungi kunda, davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarning yangi turdagisi tendensiyalari, ya'ni kibermakon orqali sodir etilayotgan jinoyatlar soni kundan kunga tobora ortib bormoqda.

Ta'kid o'rnida shuni qayd etish lozimki, kibermakon orqali sodir etilayotgan jinoyatlarga to'xtalishimizdan oldin, kiber va kibermakon o'zi nima? U orqali qanday turdagisi jinoyatlar sodir etiladi? degan savollarga aniqlik kiritib olsak, o'ylaymizki maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Kiber huquq** – axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga hamda himoya qilishga qaratilgan huquq sohasidir [11, B. 3].

#### **Kibermakon (ijtimoiy tarmoqlar)dagi munosabatlarga, jumladan:**

- Telegram-botlardagi joylashtirish tartibini belgilash (masalan, ma'lumotlar bilan almashish, xizmatlarni amalgalashuvchi oshirish, ovqat yetkazib berish botlari);
- Tashkilotlarning rasmiy sahifalarini joylashtirish (masalan, tashkilot haqidagi ma'lumotlar, joylashgan joyi, xizmat ko'rsatish vaqtini);
- Axborot xavfsizligini ta'minlash kiradi [11, B. 4].

Demak, kiber hujum orqali tender natijalaridan manfaatdor bo'lgan mansabdor shaxslar yoki ular tomonidan yollangan noma'lum shaxslar kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, elektron davlat xaridlari platformalariga noqonuniy kirib, tanlov ishtirokchilari tomonidan elektron davlat xaridlari platformalariga joylashtirilgan ma'lumotlar va hujjatlardagi yozuvlarni qalbakilashtirib, xakerlik hujumlari orqali tender natijalarini o'zgartirishlari mumkin.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining 21.11.2024 yildagi "**O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**"gi O'RQ-1003-sod Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining bir qator moddalariga raqamli dalil va elektron ma'lumotlar tushunchasi kiritilib, unga ko'ra, Jinoyat protsessual kodeksining 204<sup>1</sup>-moddasida elektron ma'lumotlar elektron qurilmalardan va axborot tizimlaridan, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yaratiladigan, ishlov beriladigan hamda saqlanadigan ma'lumotlar hisoblanishi, guvoh, jabrlanuvchi, guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa shaxslar elektron ma'lumotlarni ushbu ma'lumotlarning ko'chirma nusxasini elektron jismdan elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqli ekanligi, tergovga qadar tekshiruvni amalgalashuvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud taqdim etilgan elektron ma'lumotlarni mutaxassis ishtirokida qabul qilib olishi hamda elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan birlamchi elektron jismlarni ko'zdan kechirishlari, ish uchun

ahamiyatga ega bo'lмаган elektron ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron jismlar egalariga darhol qaytarib berilishi, ushbu Kodeksining 204<sup>2</sup>-moddasida ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan elektron ma'lumotlar, shu jumladan elektron tarzdagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmog'ida saqlanayotgan ma'lumotlar, shuningdek boshqa elektron ma'lumotlar **raqamli dalil** sifatida baholanishi ko'rsatib o'tildi.

Qonunchilikdagi ushbu o'zgartirish va qo'shimchalardan kelib chiqib, davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda dastlab, shubhali tender ishtirokchilari yoki davlat xizmatchilari faoliyatini aniqlash uchun IP-manzillar va server faoliyatini o'rganish, korrupsiya yoki kelishilgan tender shartlari haqidagi elektron xabarlarni sud ekspertizasi orqali tekshirish, tender hujjatlaridagi soxtalashtirish holatlarini aniqlash uchun raqamli imzolar va hujjatlar haqqoniyligini tasdiqlash, bank hisobvarag'idan mablag' o'tkazmalarini tahlil qilish va noqonuniy aloqalarni aniqlash, davlat xaridlari ishtirokchilari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanish hamda korrupsiya xavfini baholash va tender jarayonini tahlil qilish uchun **katta ma'lumotlar tahlili (Big Data)** - davlat xaridlari bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik ravishda tahlil qilish, **anomaliyalarni aniqlash algoritmlari** - statistik ko'rsatkichlardan farq qiladigan holatlarni aniqlash hamda **ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish (Data Mining)**—ma'lumotlar bazasidagi yashirin bog'liqliklarni aniqlash asosida ishlaydigan tizimlardan foydalanish lozim bo'ladi.

Shu bilan birga, quyidagi tergov harakatlarini o'tkazish orqali ham davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlarni aynan kimlar sodir etganligini fosh etish mumkin bo'ladi. Jumladan:

**Hujjatlarning texnik kriminalistik ekspertizasi** ham davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlar yuzasidan tayinlanadigan ekspertiza turlaridan biri hisoblanadi. Tergov va sud amaliyotida hujjatlarni kriminalistik texnika usulida tekshirish masalasi ko'p tarqalgan bo'lib, hujjatlar ijtimoiy sohalarning barcha doiralarida alohida o'rinn tutishi, xilma-xil va keng tarqalgan materiallardan tayyorlanganligi bilan bog'liq. Kriminalistik texnika tekshiruvining obyektlariga turli hujjatlardagi tadqiqot qilinuvchi rekvizitlar (matn, imzo, pul-to'lov hujjatlari, qimmatbaho ashyoviy boyliklarni olish-sotish kabi harakatlarni ifodalovchi hujjatlar, shaxsiy hujjatlar, ma'lumotnomalar, pul to'lov hujjatlari, naqd pul kirimi va to'lovi bo'yicha turli operatsiyalarni aks ettiruvchi chek daftarchasi, kirim-chiqim orderlari, kassa daftarchasi, to'lov hujjatlari, turli kvitansiyalar, depozit kartochkalari) kabilar kiradi.

Davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlar asosan hujjatlarni qalbakilashtirgan holda sodir etiladi. Hujjatni qisman qalbakilashtirish odadta ishlatilayotgan hujjatlarning haqiqiy mazmunini o'zgartirish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Hujjatlarning dastlabki mazmuniga o'zgartish kiritish yo'li bilan ularning mazmuniga ta'sir ko'rsatish, imzolarni texnik va boshqa usulda qalbakilashtirish, turli hujjatlardan qismlaridan montaj yordamida yangi hujjatlar tayyorlash harakatlari byudjet mablag'larini talon-toroj qilish bo'yicha eng keng tarqalgan usul sanaladi.

**Montajni aniqlash maqsadida hujjatning texnik-kriminalistik ekspertizasi** – nusxa ko'chirish texnikasi keng tarqalishi va ularning hujjatlar tayyorlashda ishlatilishi turli hujjat qismlaridan montaj qilish imkonini beradi. Bu ekspertiza turi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyati yuzasidan hujjatning asli va elektrofotografiya nusxalari (kserokopiyalari)ni tekshirib solishtirish bilan shug'ullanadi.

Masalan, hujjatdagi ba'zi rekvizitlar bo'lmish imzo, muhr izi, matn asl hujjatdan skaner orqali olinganidan so'ng qalbaki hujjatda printer yordamida tiklanadi. Tekshirilayotgan va asl hujjatlar, shuningdek, tekshirilayotgan hujjatlardan bir nechta sida rekvizitlarning xususiy belgili mos kelishi-kelmasligi o'rganiladi [12, B. 26-27].

**Sud-tovarshunoslik ekspertizasi** – bu ekspertiza turi asosan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan begona mulkni talon-toroj qilish jinoyatlari yuzasidan qo'zg'atilgan yoki qo'zg'atilishi mumkin bo'lган ishlar doirasida o'tkaziladi.

Bunday ekspertiza, odatda, tovarlarning o'g'irlanishi, qalbakilashtirilishi, o'zlashtirilishi, musodara qilinishi, shuningdek, sifatsiz, nostonart yoki komplektlanmagan mahsulot ishlab chiqarilishi bilan bog'liq holatlarda tayinlanadi.

Tovarshunoslik ekspertizasi amaliyotida tovarning asl holati va haqiqiy qiymatini aniqlashga imkon beruvchi ilmiy asoslangan, xolis usullar ishlab chiqilgan. Sud-tovarshunoslik ekspertizasining bosh maqsadi esa — tovarshunoslikka oid maxsus bilimlar asosida mahsulotga doir ma'lumotlarni tahlil qilish va o'rganishdan iborat.

Tovarshunos ekspertlar faqatgina tovarning o'zi yoki uning iste'mol qiymatini emas, balki tovarning shikastlanishi yoki foydalanilishi natijasida iste'mol qiymatiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni ham o'rganadilar.

Ishlab chiqarish jarayonida ayrim hollarda xodimlar tomonidan tovar sifatiga yoki miqdoriga ta'sir etuvchi talablarga rioya qilinmaydi. Bunday holatlarda, odatda, tovar tarkibiga qo'shilishi lozim bo'lган materiallar tejab qolinadi yoki ortiqcha materiallar o'zlashtiriladi, ya'ni rastrata qilinadi.

Natijada, ushbu o'zlashtirish yoki rastrata tovarning miqdori hamda sifatini jiddiy darajada pasaytiradi va bu holat mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu kabi holatlar yuzaga kelgan yoki kelmaganini aniqlash maqsadida sud-tovarshunoslik ekspertizasi o'tkaziladi.

Bu ekspertiza jarayonida tovar ta'riflarining me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi tekshiriladi, tovar sifati pasayishiga olib kelgan shart-sharoitlar – masalan, noto'g'ri o'rash, markirovkalash, saqlash yoki tashish kabi omillar natijasida yuzaga kelgan talon-toroj alomatlari aniqlanadi. Bunday dalillar sud-tovarshunoslik ekspertizasining asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

**Sud-qurilish-texnika ekspertizasi** – bu ekspertiza turi qurilish sohasi bilan bog'liq holatlarni aniqlash uchun o'tkaziladi. Qurilish iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, bu yo'nalishda davlat organlari, tashkilotlar va mas'ul shaxslar tomonidan turli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ammo olib borilayotgan islohotlar ijobjiy natijalar bilan bir qatorda, ayrim hollarda iqtisodiy suiiste'mollarga ham sharoit yaratmoqda. Jumladan, qurilish hajmini asossiz ravishda oshirib ko'rsatish, loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilgan me'yordan chetga chiqish, xarajatlarni sun'iy ravishda oshirish, qurilish materiallarining narxini ko'tarish yoki ularni o'g'irlash, tenderlarda g'olib chiqqan tashkilotlarning ajratilgan mablag'ning bir qismini o'zlashtirishi yoki rastrata qilishi kabi holatlar sud-qurilish ekspertizasini tayinlashga asos bo'ladi.

Bugungi kunda qurilish xarajatlarini baholash uchun yagona metodologiyaning yo'qligi mutaxassis-quruvchilarning obyektiv va aniq baho berishini murakkablashtirmoqda. Shuning

uchun ham qurilish sohasida sodir etilgan iqtisodiy jinoyatlar murakkab ishlar toifasiga kiradi va ularni tergov qilish ko'p vaqt talab etadi.

Qurilish ekspertizasi esa qurilish yoki ta'mirlash jarayonida yuzaga kelgan holatlarni umumiy bilimlar asosida emas, balki maxsus mutaxassislik bilimlari yordamida aniqlash zarurati tug'ilganda o'tkaziladigan ekspertiza turidir.

Bugungi kunda qurilish sohasida sodir etilayotgan iqtisodiy talon-toroj holatlari, xususan, elektron davlat xaridlari platformasi orqali amalga oshirilayotgan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan begona mulkni talon-toroj qilish jinoyatlari yuzasidan ham **sud-qurilish-texnika ekspertizasi** tayinlanishi mumkin.

Ushbu ekspertiza qurilishga oid maxsus bilimlar va amaliy tajriba asosida loyihalash, qurilish-montaj hamda ta'mirlash ishlariga sarflangan umumiy xarajatlar va ish jarayonlarini qayta tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bunda qurilish materiallarining sarfi, bino va inshootlardan foydalanish holati, narxlarning shakllanishi, quruvchilarining oylik ish haqlari o'z vaqtida to'langan-tolmaganligini aniqlash, hamda qurilish normalari va qoidalariga rioya etilmagan holatlar bo'yicha daliliy ma'lumotlarni aniqlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shuningdek, jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar va yuzaga kelgan shart-sharoitlarni aniqlash ham sud-qurilish-texnika ekspertizasining doirasiga kiradi.

**Xulosa.** Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflarga kelindi:

1. Davlat xaridlari bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etishda "Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan 16 ta tezkor-qidiruv tadbir turlaridan foydalanishni qonunan yo'lga qo'yish.

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 328-moddasiga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijasida jinoyatga oid ma'lumotlar aniqlanganda jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'lishi mumkinligi haqidagi qo'shimchani kiritish taklif etiladi.

3. Xorijiy davlatlarning davlat xaridlari sohasidagi qonunchiligi o'rganilganda, tender garovi ko'pchilik davlatlarda majburiy ekanligi ma'lum bo'ldi. Binobarin, 156 ta davlatda tender garovi talab qilinishi, shundan 70 foiz davlatlarda tender garovi xarid shartnomasi qiymatiga nisbatan maksimal foiz bilan cheklangan bo'lib, qonuniy me'yorlar turlicha: Xususan, Ukraina – 0.5 foiz, Grenada, Panama, Serbiya, Timor-Leste – 10 foiz. Ayrim davlatlarda (Bahrayn, Efiopiya, Tayvan (Xitoy)) garov uchun nafaqat foiz miqdori, balki maksimal summasi ham belgilangan. Ba'zi davlatlarda tender garovi uchun haddan tashqari erkinlik bor: 13 ta davlatda (Kolumbiya, Gonduras, Nepal, Turkiya) – minimal garov talab qilinadi, ammo maksimal chegara belgilanmagan. 32 ta davlatda tender garovi summasi davlat tashkiloti ixtiyoriga qoldirilgan – hech qanday minimal yoki maksimal miqdor belgilanmagan. Ularning quyidagi farqli tomonlari bor bo'lib, Kanadada – garov miqdori kafolat turiga bog'liq. AQShda – tender kafolati taklif narxining 20 foiz bo'lishi shart, ammo 3 million AQSh dollaridan oshmasligi kerak.

Albatta, tender garovini moslashtirish kerak bo'ladi. Haddan tashqari yuqori garov talablari kichik va o'rta biznes uchun muammolar keltirib, ularning tenderlarda ishtiroy etishini cheklab qo'yadi.

Faqat naqd pulda garov talab qilish ayniqsa, kam aylanma mablag'ga ega korxonalar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Garov miqdori haqidagi ma'lumotlar tender hujjatlarida aniq ko'rsatilishi kerak (UNCITRAL talablariga ko'ra).

Garovni haddan tashqari katta yoki juda kichik miqdorda belgilamaslik hamda garov turlarini diversifikatsiya qilish: ya'ni, faqat naqd pul emas, balki bank kafolati yoki boshqa moliyaviy mexanizmlardan foydalanish imkonini berish lozim [13, B. 180].

Xuddi shu kabi, xorijiy mamlakatlarning qonunchiligidagi belgilangan talab va me'yorlarni O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va sohaga oid boshqa qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish sifatida tender garovining minimal va maksimal qiymati kiritilsa, davlat xaridlari sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldi olinishiga erishiladi.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlarni fosh etish samaradorligini oshirishga, korrupsiyani kamaytirishga va davlat mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111460>;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi //<https://www.lex.uz/acts/111453>;
3. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 05.06.2024 yildagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni.
6. Risola / tuzuvchilar Shukurov R.R, Voxidov M.M. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 3 b.
7. Otaxo'jaev S.A, Xoliqov O.Ch. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish. Xizmatga foydalanish uchun. T:2005 yil.
8. Sinchurin O.V. Ponyatie korruptionix prestuplenii v sfere zakupok i klassifikatsii / Gosudarstvennaya slujba i kadry. – 2019. -№1. –S. 125-129.; Bastrykin A.I. Pravoe problemy barbe s korruptsie / Rossiyskiy sledovatel.-2017. -№24. –S.6-10.
9. Jubrin R.V. Kriminologicheskaya xarakteristika «Otkatov» v sovremennoy Rosii / Yurlitinfm. –M. 2016. –S. 248.
10. Aleksandrov A.S, Aleksandrova I.A. Sovremennaya ugolovnaya politika obespecheniya ekonomiceskoy bezopasnosti putem protivodeystviya prestupnosti v sfere ekonomiki: monografiya. M., Yurlitinform, 2017. 607 s.; Artemev N.V. Protivodeystvie kriminalizatsii malogo biznesa v sisteme obespecheniya ekonomiceskoy bezopastnosti Rossii: dis. ... d-ra ekon. nauk. M., 2016 468 s.; Belinskaya M.P. Pravovye osnovy protivodeystviya zloupotrebleniyam v sisteme kazennix podryadov v Rossiyskoy imperii: istoriko-pravovoe issledovanie: dis. ... kand. yurid. nauk. Nijniy Novgorod, 2016. 209 s.; Gribkov M.A. Gosudarstvennoe upravlenie protsessami protivodeystviya korruptsii: dis. ... kand. ekon. nauk. M.; 2012. 244 s.; Xramkin A.A. Upravlenie protsessom protivodeystviya korruptsii v sisteme gosudarstvennyx i munitsipalnyx zakupok: dis. ...kand. ekon. nauk. M., 2009. 170 s.
11. [Benchmarking – Public – Procurement – 2017 – Assessing – Public – Procurement – Regulatory – Systems – in – 180 – Economies.pdf](#).
12. <https://izoh.uz/uz/word/manipulyatsiya>.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).